

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1
MAXSUS SON

2026

YANVAR



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 28 sahifa,
yanvar, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA MOLIYAVIY VOSITACHILARNING AHAMIYATI.....	8
Sattorova Mehriniso Komil qizi, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ.....	11
Уракулов Аббос Жасур угли, Сафарова Сабина Сирожиддиновна, Санакулов Шахзод Мансур угли, Саттарова Зухра Илхомовна	
TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	17
Karimov Diyor Umidjon o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA STARTAP LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM JIHATLARI	21
Abdullayev Firdavs Odiljon o'g'li, Ergashov Sherzod Abduxoliq o'g'li	



IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA STARTAP LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM JIHATLARI

Abdullayev Firdavs Odiljon o'g'li

“University of management and future technologies”
universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar:

Ergashov Sherzod Abduxoliq o'g'li

“University of management and future technologies”
universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi
E-mail: sherzodabduxoligovich1994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqotda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida startap loyihalarni qo'llab-quvvatlashning nazariy, institutsional va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida innovatsion muhitni shakllantirish, inkubatsiya markazlari va akseleratorlar faoliyati, startaplarni raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish mexanizmlari, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy raqamli vositalari ilmiy asosda yoritildi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, startap loyihalar, innovatsion muhit, inkubatsiya markazlari, akseleratorlar, raqamli infratuzilma, ventchur moliyalashtirish, raqamli ko'nikmalar, startap ekotizimi.

Abstract. This study analyzes the theoretical, institutional, and practical aspects of supporting startup projects in the context of economic digitalization. The research examines the development of an innovation ecosystem, the role of business incubators and accelerators, mechanisms for integrating startups into the digital economy, the advancement of digital infrastructure, and the application of modern digital financial support instruments.

Keywords: digital economy, startup projects, innovation ecosystem, business incubators, accelerators, digital infrastructure, venture financing, digital skills, startup ecosystem.

Аннотация. В данной научной работе проведён всесторонний анализ теоретических, институциональных и практических аспектов поддержки стартап-проектов в условиях цифровизации экономики. В исследовании раскрыты вопросы формирования инновационной среды, деятельности бизнес-инкубаторов и акселераторов, механизмов интеграции стартапов в цифровую экономику, развития цифровой инфраструктуры, а также применения современных цифровых инструментов финансовой поддержки.

Ключевые слова: цифровая экономика, стартап-проекты, инновационная среда, бизнес-инкубаторы, акселераторы, цифровая инфраструктура, венчурное финансирование, цифровые компетенции, стартап-экосистема.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va texnologiyalarni joriy etish global miqyosda iqtisodiy o'sish hamda innovatsiyalarni ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Startaplar esa raqamli iqtisodiyotning eng dinamik va tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri sifatida yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish hamda ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida yangi imkoniyatlarni yaratishga xizmat qilmoqda. Startaplarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.



Ayniqsa, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida startaplarni qo'llab-quvvatlashning yangi, innovatsion va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida startaplarni qo'llab-quvvatlashning asosiy jihatlari raqamli infratuzilmaning shakllanishi, innovatsion ekotizimni yaratish, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish hamda huquqiy asoslarni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida startap loyihalarni qo'llab-quvvatlashning bir qator muhim jihatlari mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin.

1. Innovatsion muhit yaratish. Innovatsion muhit yaratish startaplarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu muhit quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarur. Bu, o'z navbatida, startaplar uchun inkubatsiya markazlari, akseleratorlar va investitsiya fondlarini tashkil etishni nazarda tutadi.

2. Inkubatsiya markazlarini tashkil etish. Inkubatsiya markazlari yangi startaplar uchun ish joylari, zarur resurslar va amaliy ko'nikmalarni taqdim etadi. Ushbu markazlar startaplarga biznes-modelni ishlab chiqish, marketing strategiyalarini shakllantirish hamda moliyaviy boshqaruv kabi yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatadi.

3. Startaplarni raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish. Iqtisodiyotni raqamlashtirish o'zgarishlarni jadallashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ish faoliyatini samarali tashkil etishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Startaplar uchun raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalarga kirish. Startaplar raqamli platformalar, bulutli texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt (AI) va Internet of Things (IoT) kabi innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'z biznes jarayonlarini optimallashtirishi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Davlat tomonidan ushbu texnologiyalarga kirishni yengillashtirish va ularni startaplar uchun arzonlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli transformatsiya. Startaplarni raqamlashtirish sharoitida ularning operatsion tizimlari va biznes-modellarini raqamli texnologiyalar yordamida qayta shakllantirish zarur. Bu holat startaplar faoliyatini yanada samarali va tezkor tarzda amalga oshirish imkonini yaratadi.

Innovatsion ekotizim yaratish. Startaplar o'zaro hamkorlik asosida faoliyat yuritish va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali kuchli innovatsion ekotizimni shakllantirishi mumkin. Bunda davlat texnologik parklar, inkubatorlar, akseleratorlar va startap markazlari orqali qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va foydalanuvchilarni ushbu tizimlarga jalb etishga ko'maklashadi.

4. Raqamli infratuzilma va startaplarni qo'llab-quvvatlash. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida raqamli infratuzilma muhim ahamiyatga ega bo'lib, u tarmoqlar, platformalar, ma'lumotlar bazalari va kommunikatsiya tizimlarini o'z ichiga oladi. Startaplarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun raqamli infratuzilma zarur vositalar va imkoniyatlarni taqdim etadi.

Raqamli infratuzilmani qo'llab-quvvatlashning muhim jihatlari quyidagilar kiradi. Bulutli texnologiyalar: startaplar ko'pincha cheklangan moliyaviy resurslarga ega bo'lgani sababli bulutli texnologiyalardan foydalanish ularga yuqori texnologiyalarga nisbatan arzon narxlarda kirish imkonini beradi. Bu esa infratuzilmani rivojlantirish va mahsulotlarni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt. Startaplar o'z faoliyatini optimallashtirish va foydalanuvchi ehtiyojlarini chuqurroq tushunish uchun katta ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishlari zarur. Ushbu jarayonda davlat tomonidan ilmiy va texnologik ko'makning taqdim etilishi muhim hisoblanadi.

5G va yuqori tezlikdagi internet. Raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biri yuqori tezlikdagi internet tarmog'i hisoblanadi. 5G texnologiyasi internet tezligini sezilarli darajada oshiradi va startaplarning global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

5. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va startaplar uchun raqamli investitsiya vositalarini joriy etish. Startaplar uchun moliyaviy resurslarga kirish muhim jihat bo'lib, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritayotgan startaplar uchun bu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash startaplar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur jarayonni quyidagi jihatlari orqali izohlash mumkin. Venchur kapitali va angel investorlar: startaplarni rivojlantirish uchun venchur kapital yoki angel investorlar tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarur. Davlat bu sohada faoliyat yurituvchi moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirishi va startaplar uchun investitsiyalarni jalb etish jarayonini soddalashtirishi lozim.

Raqamli investitsiya platformalari: internet orqali startaplar va investorlar o'rtasida bevosita aloqalarni yo'lga qo'yish, shuningdek, davlat tomonidan startaplarni qo'llab-quvvatlovchi raqamli investitsiya platformalarini tashkil etish zarur. Bunday platformalar startaplarning moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Moliyaviy xatarlarni minimallashtirish: startaplar yuqori darajadagi risklarga ega bo'lganligi sababli davlat tomonidan kredit kafolatlari, subsidiyalar, grantlar va soliq imtiyozlari ko'rinishida moliyaviy yordam ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.



6. Raqamli ko'nikmalar va ta'lim tizimini takomillashtirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun malakali kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Startaplarni qo'llab-quvvatlashda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Raqamli ta'lim: startaplar uchun zarur bo'lgan raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlarini yaratish, startapchilarni ilg'or texnologiyalar va raqamli infratuzilmalardan foydalanishga o'rgatish zarur. Davlat tomonidan innovatsion ta'lim tizimini shakllantirish, uni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish hamda startaplar uchun maxsus kurslarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Ko'nikmalarni rivojlantirish: startapchilar uchun zarur bo'lgan raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan raqamli o'quv kurslari, treninglar va sertifikatlash tizimlarini joriy etish lozim. Bu ularning raqamli vositalardan samarali foydalanishiga xizmat qiladi. Shu o'rinda quyida startap dasturlarini o'rganish bosqichlarini aks ettiruvchi jadval keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. Raqamli ko'nikmalar va ta'lim tizimini takomillashtirish bosqichlari¹.

Dastur turi	Maqsad	Maqsadli auditoriya	O'quv muddati	Eslatmalar
Onlayn kurslar	Raqamli ko'nikmalarni o'rganish	Startap xodimlari, talabalar	4–12 hafta	Coursera, Udemey, edX kabi platformalarda mavjud
Seminar va treninglar	Innovatsion strategiyalarni o'rganish	Startap rahbarlari, investorlar	1–3 kun	Malakali mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi
Mentorlik dasturlari	Shaxsiy rivojlanish va tajriba almashish	Startap asoschilari	Oylik yoki yillik	Tajribali mutaxassislar bilan birga ishlash
Akademik dasturlar	Texnologiya va menejmentni o'rganish	Talabalar, yangi tadbirkorlar	1–2 yil	Universitetlar va institutlarda taqdim etiladi
Master-klasslar	Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish	Professional mutaxassislar	1–2 kun	Maxsus mavzular bo'yicha o'tkaziladi
Vebinarlar	Yangiliklar va innovatsiyalar haqida ma'lumot berish	Barcha qiziquvchilar	1–3 soat	Onlayn formatda erkin qatnashish imkoniyati
Hackathonlar	Raqamli ko'nikmalarni tasdiqlash	Ishchilarning barcha qatlamlari	24–48 soat	Jamoaviy ish orqali yangiliklar yaratish
Sertifikatlashtirish dasturlari	Raqamli ko'nikmalarni tasdiqlash	Ishchilarning barcha qatlamlari	3–6 oy	Mutaxassisliklar bo'yicha tan olinadi

7. Huquqiy qo'llab-quvvatlash va raqamli qonunchilik. Raqamli iqtisodiyot sharoitida startaplarni muvaffaqiyatli qo'llab-quvvatlash uchun mos huquqiy bazani shakllantirish zarur. O'zbekiston hukumati va qonun chiqaruvchi organlari so'nggi yillarda startaplar hamda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bu borada raqamli qonunchilikni takomillashtirish, startaplar uchun qulay muhit yaratish va investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan bir qator huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Startaplarni huquqiy qo'llab-quvvatlash, qulay institutsional muhit yaratish hamda ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagi tashabbuslar mavjud.

Startaplarni soliq imtiyozlari bilan ta'minlash. Startaplar uchun soliq stavkalarini pasaytirish va uzoq muddatli imtiyozlar taqdim etish orqali ularni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayrim hollarda startaplar dastlabki 5 yil davomida soliqlardan ozod etiladi.

Soliqni yengillashtirish. Startaplar va innovatsion loyihalar uchun soliq yukining kamaytirilishi, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Investorlar va startaplar uchun qonunchilik asoslari.

Riskli kapitalni qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston hukumati risk kapitali (venture capital) bozori va aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirib bormoqda. Ushbu huquqiy mexanizmlar startaplar uchun investorlarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashirin investitsiyalarni rag'batlantirish. Startaplar va innovatsion loyihalar uchun maxfiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga doir normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

8. Akseleratorlar. Akseleratorlar qisqa muddat (odatda 3–6 oy) davomida startaplarni tezkor rivojlantirishga qaratilgan dasturlar hisoblanadi. Ushbu dasturlar mentorlik, investorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish hamda maxsus ta'lim dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Innovatsion muhitda muvaffaqiyatga erishishda investitsiya fondlari ham muhim o'rin tutadi(2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda startaplarni qo'llab-quvvatlash maqsadida faoliyat yuritayotgan akseleratorlar²

Akselerator	Tashkilot	Maqsad	Dasturlar	Foydalar
Innotech	Innovatsion rivojlanish agentligi	Startaplarni rivojlantirish	Tezlashtirish dasturi, mentorlash	Moliyalashtirish, trening, mentorlik
Biznes-inkubator	O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat vazirligi	Yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash	Inkubatsiya dasturlari	Ofis maydoni, resurslar, maslahat
Technovation	Technovation Global	Qizlar va ayollarni texnologiya sohasida qo'llab-quvvatlash	Innovatsion g'oyalarni rivojlantirish	Ta'lim, resurslar, tarmoq yaratish
Startup UZ	O'zbekiston startup assotsiatsiyasi	Startaplar infratuzilmasini rivojlantirish	Tezlashtirish dasturi, grantlar	Investitsiyalar, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish
UNDP Akselerator	Birlashgan Millatlar Tashkiloti	Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish	Innovatsion ijtimoiy dasturlar	Moliyaviy yordam, maslahatchilar
Silkway Ventures	Silkway Group	Raqamli va texnologik startaplarni qo'llab-quvvatlash	Mentorlash va moliyalashtirish	Investitsiyalar, tajribali mentorlar
Seedstars Uzbekistan	Seedstars Global	O'sish potensialiga ega startaplarni aniqlash	Global tarmoq, mentorlik	Xalqaro tarmoq, investitsiya imkoniyatlari
O'zbekiston Yevropa Markazi	Yevropa Ittifoqi	O'zbekiston va Yevropa o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish	Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Grantlar, maslahatchilar

Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan akseleratorlar startaplarni rivojlantirish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynamoqda. Ular tadbirkorlarni moliyaviy yordam, mentorlik va resurslar bilan ta'minlash orqali startup loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga ko'maklashmoqda. Natijada mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va innovatsion muhitning mustahkamlanishi ta'minlanmoqda.

9. Xalqaro hamkorlik. Startaplar uchun xalqaro bozorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Global ekotizimga integratsiyalashuv, xalqaro investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda tajriba almashish startaplarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalar va tadbirkorlikning o'rni masalasi ilk bor tizimli ravishda Joseph A. Schumpeter tomonidan 1934-yilda asoslab berilgan bo'lib, u iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida innovatsion faoliyat va yangi tadbirkorlik tashabbuslarini ko'rsatadi. Schumpeterning "ijodiy vayronkorlik" konsepsiyasi bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida startaplarning bozorga yangi texnologiyalar va biznes-modellar orqali kirib kelishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Keyinchalik Michael E. Porter tomonidan 1990-yilda ishlab chiqilgan milliy raqobat ustunliklari nazariyasi startaplar faoliyati uchun qulay institutsional va raqobat muhitining ahamiyatini ochib bergan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida startaplarni rivojlantirish masalalari xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. OECD tomonidan 2017-yilda e'lon qilingan "Digital Economy Outlook" hisobotida raqamli infratuzilma, innovatsion muhit va raqamli ko'nikmalar startaplar rivojining asosiy omillari sifatida ko'rsatilgan. Jahon bankining 2020-yildagi "Digital Development Overview" hisobotida esa raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish masalalari tahlil qilingan. UNCTAD tomonidan 2019-yilda tayyorlangan "Digital Economy Report"da raqamli platformalar va global qiymat zanjirlarida startaplarning o'rni alohida ta'kidlangan.

² World Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Startaplarni amaliy qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga oid tadqiqotlar Steve Blank va Bob Dorf tomonidan 2012-yilda ishlab chiqilgan "The Startup Owner's Manual" asarida batafsil yoritilgan bo'lib, unda startaplarni inkubatsiya qilish, akseleratsiya va bozorga chiqish strategiyalari asoslab berilgan. Eric Ries tomonidan 2011-yilda taklif etilgan "Lean Startup" yondashuvi esa raqamli iqtisodiyot sharoitida startaplarning tezkor moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan. Mason va Brown 2014-yilda startap ekotizimlari tushunchasini rivojlantirib, institutsional qo'llab-quvvatlash va investorlar tarmog'ining ahamiyatini ko'rsatgan. Shuningdek, Nambisan tomonidan 2017-yilda ilgari surilgan raqamli tadbirkorlik konsepsiyasi startaplarning raqamli platformalar asosida shakllanishini zamonaviy ilmiy yondashuv sifatida asoslab bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqotda ma'lumotlar ikkilamchi va qisman birlamchi manbalar asosida shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, ochiq statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, startaplar va raqamli iqtisodiyotga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ma'lumotlarni yig'ishda tizimli yondashuv qo'llanilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida startaplarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga doir konseptual va empirik materiallar umumlashtirildi. Tahlil jarayonida qiyosiy va mantiqiy tahlil usullari orqali turli mamlakatlar va institutsional modellar tajribasi solishtirildi hamda ularning samaradorlik jihatlari baholandi. Shuningdek, induktiv va deduktiv usullar yordamida olingan ma'lumotlar asosida umumiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalarini aniqlashtirishda tavsifiy va analitik tahlil usullaridan foydalanilib, raqamli infratuzilma, moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda institutsional omillarning startaplar rivojiga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni zamonaviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu sharoitda startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash masalasi milliy innovatsion tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida startaplarning muvaffaqiyatli shakllanishi va barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion muhitning mavjudligi, institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanganligi hamda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada shakllantirilganiga bog'liqdir.

Avvalo, innovatsion muhit yaratish startap ekotizimini rivojlantirishning bazaviy sharti hisoblanadi. Bunda ilm-fan, ta'lim, biznes va davlat sektori o'rtasidagi o'zaro integratsiyalashuv startap g'oyalarining tezkor tijoratlashtirilishiga xizmat qiladi. Innovatsion muhitning kuchayishi nafaqat yangi texnologiyalarni yaratish, balki mavjud bilim va tajribalarni samarali transformatsiya qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Inkubatsiya markazlari va akseleratorlar faoliyati startaplarning dastlabki rivojlanish bosqichida muhim institutsional tayanch vazifasini bajaradi. Ular startap subyektlariga biznes-model ishlab chiqish, bozorga chiqish strategiyalarini shakllantirish, mentorlik va konsalting xizmatlarini ko'rsatish orqali raqamli iqtisodiyot talablariga moslashish imkonini beradi. Ayniqsa, akseleratorlar orqali startaplarning qisqa muddatda o'sish sur'atlarini jadallashtirish va investorlar bilan aloqalarini mustahkamlash mumkin.

Startaplarni raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish jarayoni ularning raqamli platformalar, elektron savdo, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) hamda bulutli texnologiyalar asosida faoliyat yuritishini taqozo etadi. Bu holat startaplarning raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi startap loyihalarni qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tezkor internet tarmoqlari, raqamli platformalar, axborot xavfsizligi tizimlari hamda elektron davlat xizmatlari startaplar faoliyati uchun qulay muhit yaratadi. Mazkur infratuzilma startaplarning operatsion samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularning innovatsion faoliyatini rag'batlantiradi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va raqamli investitsiya vositalarini joriy etish startaplar rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Venchur kapital, kraudfanding, biznes farishtalar hamda raqamli moliyaviy platformalar orqali investitsiyalarni jalb qilish startaplarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va yuqori riskli innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, raqamli ko'nikmalar va ta'lim tizimini takomillashtirish startap ekotizimining uzoq muddatli rivojlanishini belgilovchi omil hisoblanadi. Raqamli savodxonlik, dasturlash, ma'lumotlar tahlili va innovatsion fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari inson kapitali sifatini oshirib, yangi startap tashabbuslari paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Huquqiy qo'llab-quvvatlash va raqamli qonunchilikni rivojlantirish esa startaplar faoliyatini tartibga soluvchi shaffof va barqaror muhitni shakllantiradi. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, raqamli shartnomalar hamda elektron bitimlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash startaplar uchun ishonchli institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Innovatsion muhit, inkubatsiya va akseleratsiya mexanizmlari, raqamli infratuzilma, moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimi hamda xalqaro hamkorlikning uyg'un rivojlanishi startap ekotizimining barqarorligini ta'minlab, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jihatlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishning muhim ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RB-630-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4910391>
3. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. — Cambridge: Harvard University Press, 1934.
4. OECD. Digital Economy Outlook. — Paris: OECD Publishing, 2017.
5. World Bank. Digital Development Overview. — Washington, DC: World Bank Group, 2020.
6. Blank S., Dorf B. The Startup Owner's Manual: The Step-by-Step Guide for Building a Great Company. — California: K&S Ranch Press, 2012.
7. Ries E. The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses. — New York: Crown Business, 2011.
8. European Commission. Digital Innovation Hubs in Smart Specialisation Strategies. — Brussels, 2018.
9. Mason C., Brown R. Entrepreneurial Ecosystems and Growth Oriented Entrepreneurship. — Paris: OECD Publishing, 2014.
10. UNCTAD. Digital Economy Report. — Geneva: United Nations, 2019.
11. Isenberg D. The Entrepreneurship Ecosystem Strategy as a New Paradigm for Economic Policy. — Babson Entrepreneurship Ecosystem Project, 2011.
12. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.
13. Nambisan S. Digital Entrepreneurship: Toward a Digital Technology Perspective of Entrepreneurship. — Entrepreneurship Theory and Practice, 2017.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

1-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100